O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA BAXT KONSEPTINING SEMANTIK MAYDONI

SEMANTIC FIELD OF THE CONCEPT OF HAPPINESS IN UZBEK FOLK PROVERBS

Tursunova Kamola Faxritdinovna

Osiyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek xalq maqollarida baxt konseptining semantik maydoni lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda semantik maydon nazariyasi asosida maqollardagi baxt konseptining tarkibiy qismlari, uning sinonimik, antonimik va assotsiativ aloqalari o‘rganiladi. Maqollar korpusidan olingan misollar orqali baxt tushunchasi o‘zbek xalq dunyoqarashida qanday ifodalanishi va uning leksik-semantik guruhlari aniqlashtiriladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek lingvomadaniyatshunosligi va kognitiv tilshunoslik sohalari uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *semantik maydon, baxt konsepti, xalq maqollari, lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik, leksik-semantik guruh.*

ABSTRACT

This article provides a linguistic analysis of the semantic field of the concept of happiness in Uzbek folk proverbs. Based on the theory of semantic fields, the structural components of the happiness concept, its synonymic, antonymic and associative relations are examined. Through examples drawn from a corpus of proverbs, the ways in which the concept of happiness is expressed in Uzbek folk worldview are identified, and its lexical-semantic groups are determined. The findings are of practical significance for Uzbek linguoculturology and cognitive linguistics.

1. KIRISH

Har qanday tildagi konseptlar o‘sha xalqning dunyoqarashi, mentaliteti va madaniy-tarixiy tajribasini o‘zida mujassamlashtiradi. Baxt-insoniyat uchun azaldan eng muhim qadriyatlardan biri bo‘lib,u nafaqat falsafiy, balki lingvistik jihatdan ham alohida o‘rganishni talab etadi. Bu konsept tilshunoslikda chuqur tahlil etilayotgan muhim mavzulardan biri bolib, uning kognitiv, madaniy va tillararo ifodalanishi zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda dolzarb hisoblanadi. O‘zbek xalq maqollari esa ushbu konseptning milliy-madaniy xususiyatlarini keng va boy tarzda aks ettiruvchi bebaho til xazinasi hisoblanadi.

Zamonaviy tilshunoslikda semantik maydon nazariyasi turli konseptlarni sistemali o‘rganishda keng qo‘llanilmoqda. Leksik-semantik maydon umumiy ma’noga ega bolgan sozlar guruhidir. Bu tushuncha dastlab XX asr boshlarida nemis olimi Jost Trier tomonidan ilgari surilgan bolib, u „so‘z maydonlari’’ (Wortfeld) tushunchasini rivojlantirgan. Trierning fikricha, so‘zlar izolyatsiyada emas, balki o‘zaro bog‘langan holda mavjud bo‘lib, bir-birining ma’nosini toldiradi (Trier, 1931). Shuningdek, Trier leksik birliklarning ma’no jihatdan chegaralangan tizimga ega ekanligini va ularning semantik rivojlanish jarayonini organish zarurligini ta’kidlaydi.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek xalq maqollarida baxt konseptining semantik maydonini aniqlash, uning tarkibiy-ma'noviy komponentlarini tahlil qilish va milliy-madaniy xususiyatlarini ko‘rsatishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbek xalq maqollari to‘plami va boshqa folklor manbalari qo‘llanilgan.

2. ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Semantik maydon nazariyasi tilshunoslikda XX asrning 30-yillaridan beri rivojlanib kelmoqda. J.Trierning so‘z maydon nazariyasi (Wortfeldtheorie) leksik birliklarning o‘zaro munosabatini tizimli o‘rganishga asos soldi. Keyinchalik rus olimi I.A. Melchuk (1974) leksik-semantik maydon tushunchasini sathlar asosida tahlil qilib so‘zlarning semantic munosabatlari tizimini ishlab chiqqan Yu.D. Apresyan (1995)esa leksik-semantik maydon tarkibini aniq belgilash uchun generativ semantik modeldan foydalangan.

O‘zbek tilshunosligida esa Sh.Rahmatullayev, E.Begmatov, B.Yo‘ldoshev kabi olimlar leksik-semantik guruhlar va konseptlarni o‘rganishda katta hissa qo‘shganlar.

Baxt konseptining tilshunoslik jihatidan tadqiqi G. Visson, A. Vezhbitskaya, N.D. Arutyunova kabi tilshunoslarning ishlarida muhim o‘rin tutadi.
A. Vezhbitskaya „baxt’’ tushunchasining turli tillarda universal va milliy-spetsifik xususiyatlari borligini ta'kidlaydi. O‘zbek folklorida baxt mavzusini o‘rganishda H. Zarifov, M. Alaviya, T. Mirzayevlarning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanilgan: semantik tahlil metodi (konseptning ma'no tarkibini aniqlash uchun), komponentli tahlil metodi (semalarni ajratish), distribusiya metodi (so‘zlarning qo‘llanish muhitini aniqlash) va lingvomadaniy tahlil metodi (milliy-madaniy xususiyatlarni ko‘rsatish uchun).

3.BAXT KONSEPTINING SEMANTIK MAYDONI: TAHLIL

3.1. „Baxt’’ leksemasining semantik tuzilishi

O‘zbek tilining izohli lug‘atida „baxt’’ so‘ziga quyidagicha ta’rif berilgan:
1.Kishining o‘z faoliyati natijalaridan, hayotda qo‘lga kiritgan yutuqlaridan to‘la qoniqishi, yashash tarzidan mamnunligi, muayyan maqsadga yetgani , orzu-umidining ushalishi sifatida namoyon bo‘ladigan ma’naviy-axloqiy tushuncha.
2. Hayot dan to‘la mamnunlik va bearmonlik holati: saodat, qut.[1]

„Baxt’’ arabcha so‘z bo‘lib, forsiy-tojik tillari vositasida o‘zbek tiliga kirib kelgan. Uning sinonimik qatoriga „saodat’’, „nasiba’’, „omad’’, „to‘kin-sochinlik’’, „farovonlik’’ kabi birliklar kiradi. Antonimik qatorini esa „baxtsizlik’’, „qashshoqlik’’, „kulfat’’, „dard’’, „musibat’’ tashkil etadi.

Konseptning yadro zonasida „baxt’’, „saodat’’ leksemalar joylashgan. Yaqin periferiya zonasida „omad’’, „nasiba’’, „qismat’’, „rizq’’ kabi birliklar, uzoq periferiya zonasida esa „tinchlik’’, „salomatlik’’, „bolalar’’, „mehr’’, „do‘stlik’’ konseptlari bilan aloqador til birliklari keladi. Bu holat baxt konseptini o‘zbek madaniy makonida ko‘p qirrali, murakkab va ko‘p komponentli konsept sifatida ko‘rsatadi.

4.2. Baxt va oilaviy farovonlik

Baxt haqidagi maqollarning ko‘pchiligi oilaviy hayot, uy-ro‘zg‘or va farzandlar bilan bog‘lanadi. Bu o‘zbek milliy mentalitetida oilaning markaziy qadriyat ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu guruhga mansub maqollar baxtli hayotning asosiy sharti sifatida yaxshi turmush o‘rtoq, itoatkor va ziyoli farzandlar hamda tinch va ahil oilani ko‘rsatadi.

,,Ahil oila – baxtli,
Noahil oila – vaqtli’’[2] (311-b)
,,Farzand baxti – ona taxti,
Farzand kamoli – ota jamoli.’’ (276-b)
,,Xotin baxti erda bo‘lar
Yetim – baxti yerda.’’(199-b)
,,Qizning baxti – erning davlati.’’(199-b)
Ota bola uchun taxt yasar,
Baxt yasata olmas. (275-b)

---

[1] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, Toshkent,2005,314-bet

Ushbu maqollarda baxtli oila ahillik tushunchasi bilan boglanishi, oilaning baxti ko‘proq erkak kishining zimmasida bo‘lishi, oilaviy baxt uchun boylik ahamiyat kasb etmasligini ko‘rishimiz mumkin.. Bu holat o‘zbek madaniyatida oilaning nafaqat ijtimoiy, balki ma'naviy-ruhiy ahamiyati borligidan dalolat beradi.

4.3. Baxt va mehnat

O‘zbek xalqi qadimdan chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug‘ullanishgan. Hayotda erishgan har bir yutug‘i mehnat evaziga kelgan. Shunday tushuncha bilan yashagan xalqning og‘zaki ijodida ham bu narsa alohida o‘rin egallagan. Shu boisdan o‘zbek xalq maqollarining ko‘pchiligida BAXT tinimsiz mehnat, harakat orqali erishiladigan tushuncha sifatida qaralgan.

,,Mehnat baxt keltirar.’’ (31-b)

„Mashaqqatsiz baxt kelmas,

Mehnatsiz taxt kelmas.’’ (31-b)

„Yigitning baxtini mehnat ochar.’’ (30-b)

„Baxtingga ishonma barmog‘ingga ishon.’’ (23-b)

“Baxt yalqovga begona” (23-b)

Bu maqollarda MEHNAT — BAXTNING KALITI metaforasi dominant o‘rin tutadi. Mehnat shunchaki moddiy boylik manbai emas, balki insoniy qadriyat, shaxs identitetining asosi sifatida tasvirlanadi.

4.4. Baxt va bilim

Ilm baxtning tarkibiy qismi sifatida ham qraladi. Ushbu guruhda ilm barcha boyliklardan ustun qo‘yiladi. Ilm olish baxtli hayotning zaruriy sharti sifatida qaraladi.

„Ilm baxt keltirar,

Bilim taxt keltirar.’’ (139-b)

„Baxt belgisi- bilim .’’ (137-b)

„Aqlli baxt topar,

Baxt bilan taxt topar.’’ (114-b)

---

2. “O‘zbek xalq maqollari”, “Sharq”, Toshkent. –2005.

Bu maqollar ilmning moddiy boylikdan ustunligi haqida metaforik fikrni ilgari suradi. Ilmni baxt va boylikka erishtiruvchi vosita sifatida korishimiz mumkin.

4.5. Baxt va do‘stlik, jamoa

O‘zbek xalq maqollarida baxt individualistik emas, balki kollektivistik tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi. Baxt yaqin do‘stlar va jamoa bilan aloqada ko‘rsatiladi. Bu o‘zbek jamiyatida «mahalla» instituti va kollektiv hayot tarzining lingvistik aksidir.

„Totuvlik- baxt

Totuvsizlik—qulagan taxt .’’ (316-b)

„Baxtiyor bo‘lsa zamon,

Noshukur bo‘lma yomon.’’ (10-b)

„Elning baxti- erning baxti.’’(6-b)

„El boqsa, baxting kular,

El boqmasa, taxting qular.’’ (10-b)

Bu maqollarda kollektiv baxtning individual baxtdan ustuvorligi ochiq ko‘rinadi. „El bilan’’ iborasi o‘zbek mentalitetida birgalikdagi shodlik va qayg‘uni taqsimlash an'anasini aks ettiradi. Do‘stlik „davlat’’ ramzi bilan qiyoslanib, unga siyosiy va ijtimoiy o‘lcham beriladi.

4.6. Baxt va moddiy boylik: murakkab munosabat

O‘zbek xalq maqollarida baxt va moddiy boylik o‘rtasidagi munosabat bir tomonlama emas. Bir tomondan, to‘kin-sochinlik, rizq-nasiba baxtning belgisi sifatida tasvirlanadi; boshqa tomondan, boylikning insonni buzishi, xasis va manfaatparast qilishi haqida ogohlantiriladi. Bu ikkilamchilik o‘zbek xalqining boylikka nisbatan muvozanatli munosabatini ko‘rsatadi.

„Taxting kulguncha, baxting kulsin.’’ (198-b)

„Kambag‘alning baxti

Boyning taxtini yiqitar .’’ (253-b)

„Qizga oltin taxt emas

Barmoqday baxt tila.’’ (200-b)

„ Qizga oltin taxt emas, Barmoqday baxt tila’’ maqolida moddiy va ma'naviy boylik o‘rtasidagi ziddiyat keskin ifodalangan. Inson tomonidan to‘plangan mol-mulk haqiqiy baxt bermasligini, asosiy baxtning esa insonlar o‘rtasidagi munosabat va muhabbatda ekanini ko‘rsatadi.

4.7. Baxt va baxtsizlik: antonimik munosabat

O‘zbek xalq maqollarida baxt konsepti ko‘pincha baxtsizlik, qayg‘u, musibat tushunchalari bilan kontrast orqali ochib beriladi. Bu holat baxtni statik holat emas, balki doim o‘zgarib turuvchi, baxtsizlik bilan almashib keladigan dinamik jarayon sifatida qabul qilishni ko‘rsatadi.

„Baxtsiz quduqqa kirsa qum yog‘ar.’’ (195-b)

„Davlat ham egiz-egiz

Mehnat ham egiz-egiz.’’ (195-b)

„Baxtsiz kishini tuyaning ustida it qopar.’’ (195-b)

„Birov suv topolmaydi ichgani

Birov suv topolmaydi kechgani.’’(196-b)

Ushbu maqollarda hayotning ikki qutbi — baxt va baxtsizlik — bir-birini to‘ldiruvchi, bir-birini ta'riflash uchun zaruriy kategoriyalar sifatida tasvirlanadi.Davlat va mehnat metaforasi orqali baxtsizlik va baxt o‘rtasidagi natural sikl ko‘rsatiladi.

5. MUHOKAMA: BAXT KONSEPTINING MILLIY XUSUSIYATLARI

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek xalq maqollarida baxt konseptining semantik maydoni bir necha muhim milliy-madaniy xususiyatlarga ega. Birinchidan, o‘zbek baxt modeli kollektivistik xarakter kasb etadi — baxt individual emas, balki oila, el-yurt va jamoa bilan birga mavjuddir.

Ikkinchidan, o‘zbek xalq maqollarida baxt nasib va qismat bilan uzviy bog‘liq. „Nasib bo‘lsa’’ iborasi maqollar matnida qayta-qayta uchrab, baxtning ilohiy irodaga ham bog‘liqligi haqidagi tasavvurni aks ettiradi. Bu tasavvur islom aqidasi ta'sirida shakllanib, taqdir va rizqning Xudo tomonidan belgilanishi haqidagi diniiy-falsafiy qarashlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Uchinchidan, baxt maqollarda ko‘pincha o‘tkinchi, beqaror holat sifatida tavsiflanadi. Baxtning qadriga yetish uchun baxtsizlikni bilish kerak degan g‘oya o‘zbek falsafiy-paremik fikrlashda muhim o‘rin tutadi. Bu holat hayotni doim o‘zgaruvchan, ziddiyatli va murakkab jarayon sifatida idrok etishni ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, mehnat va baxt o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘zbek maqollarining o‘ziga xos xususiyatidir. Baxt tekin kelmasligi, uni mehnat bilan qo‘lga kiritish lozimi haqidagi g‘oya o‘zbek xalqining mehnatsevarlik psixologiyasini aks ettiradi.

6. XULOSA

Ushbu tadqiqot o‘zbek xalq maqollarida baxt konseptining semantik maydoni murakkab, ko‘p komponentli va milliy-madaniy jihatdan o‘ziga xos tuzilishga ega ekanini ko‘rsatdi. Baxt konseptining yadro zonasida oilaviy farovonlik, mehnat va ilm komponentlari dominant o‘rin tutadi.

Periferiya zonasida do‘stlik, jamoa ruhi, moddiy boylik va nasib/qismat komponentlari joylashgan.

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi: (1) o‘zbek baxt modeli asosan kollektivistik xarakter kasb etadi va oilaviy-ijtimoiy munosabatlar asosida quriladi; (2) mehnat baxtning zaruriy sharti sifatida tan olinadi (3) baxt taqdir va nasib tushunchalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, islom dunyoqarashining ta'siri sezilib turadi; (4) baxt va baxtsizlik antonimik munosabat orqali o‘zaro ta'riflanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “O‘zbek xalq maqollari”, Toshkent. “Sharq”–2005.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, Toshkent,2005,314-bet
3. Karimova N. Til va konsept: Kognitiv yondashuv”. Toshkent. Fan. -2022
4. Ahmedova S. „Lingvosemantik tahlil asoslari”. Samarqand: Zarafshon, -2020
5. Maqmatov A. „Zamonaviy lingvistika” . Toshkent, Tafakkur avlodi.-2020
6.Usmonova Sh. „ Lingvokulturologiya” . Toshkent,- 2019
7.Xudoyberganova D.„ Matnning antroposentrik tadqiqi” Toshkent „ Fan” ,-2013
8.Жўраева Б. Мақол ва матал орасидаги муносабат // Тил ва адабиёт таълими. 2001. № 2. – Б. 88-92.
9.Жўраева Б. Мақолларда синонимия ҳодисаси // Ўзбек тили ва адабиёти. 2000. № 5. – Б. 58-61.
10.Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiq yo‘llarini izlab//O‘zbek tili va adabiyoti, 2012. –№5 – B 3-16

11. Yusupov O‘. Ma’no , tushuncha, konsept va lingvokulterema atamalari xususida// Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlarida: Ilmiy amaliy konferensiya materiallari – Toshkent 2011.-B.49